Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

doi

Crossref
Content
Registration

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/2(112)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

O‘ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA QO‘SHILISHI: SIYOSIY SHART-SHAROITLAR VA STRATEGIK MOTIVLAR



Jamoliddin RUSTAMOV,
Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti
Toshkent filiali direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: ushbu maqola Turkiy davlatlar tashkilotining tashkil etilishi zaruriyati va uning tobora ta'sirchan mintaqaviy tashkilotga aylanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik omillarini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, turkiy hamkorlik doirasini yaratishning asosiy sabablarini aniqlash, O'zbekistonning 2019-yil-da Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishining siyosiy shart-sharoitlari va strategik motivlari keng qamrovli tahlil etilib, 2019–2026-yillar oralig‘idagi tarixiy jarayon, sammitlar diplomatiyasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar va geosiyosiy o'zgarishlar bayon etilgan. Hukumatimizning ko'p vektorli tashqi siyosat strategiyasi, O'rta Yo'l infratuzilma loyihalari va Turkiy dunyo integratsiyasida O'zbekiston rolini tahlil qilish asosida maqolada ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkiy davlatlar tashkiloti, Mustaqil turkiy respublikalar paydo bo‘lishi, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, Shavkat Mirziyoyev diplomatiyasi, mintaqaviy integratsiya, geosiyosat, Markaziy Osiyo, strategik motivlar, ko‘p vektorli tashqi siyosat, O'rta Yo'l, “Turkiy dunyo nigohi – 2040” va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi, Bishkek sammiti 2024, Gabala sammiti 2025, Turkiston norasmiy sammiti 2026.*

ПРИСОЕДИНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА К ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ: ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ МОТИВЫ

Жамолиддин Рустамов,
Заместитель директора Ташкентского филиалаМосковского государственного института международных отношений

Аннотация: в данной статье анализируются предпосылки создания Организация тюркских государств и политические, экономические, культурные факторы, а также факторы безопасности, способствовавшие её постепенному превращению во всё более влиятельную региональную организацию. Основные цели исследования заключаются в выявлении ключевых причин формирования рамок тюркского сотрудничества, а также в

комплексном анализе политических условий и стратегических мотивов вступления Республики Узбекистан в Организацию тюркских государств в 2019 году. Исследование охватывает исторические процессы, дипломатию саммитов, экономические показатели и геополитические изменения в период 2019-2026 годов. На основе анализа многовекторной стратегии внешней политики Шавката Мирзиёева, инфраструктурных проектов Срединного коридора и роли Узбекистана в интеграции тюркского мира в статье формулируются научные выводы.

Ключевые слова: *Организация тюркских государств, возникновение независимых тюркских республик, внешняя политика Республики Узбекистан, дипломатия Шавката Мирзиёева, региональная интеграция, геополитика, Центральная Азия, стратегические мотивы, много векторная внешняя политика, Срединный коридор, стратегия «Видение тюркского мира-2040» и Стратегияна 2022-2026 годы, Бишкекский саммит-2024, Габалинский саммит-2025, Туркестанский неформальный саммит-2026, Искусственный интеллект и цифровое развитие.*

UZBEKISTAN'S MEMBERSHIP IN THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES: POLITICAL CONDITIONS AND STRATEGIC DRIVERS

Rustamov Jamoliddin,
Moscow State Institute of International Relations Deputy Director of Tashkent Branch

Abstract: This article aims to analyze the necessity behind the establishment of the Organization of Turkic States and the political, economic, cultural, and security factors that have contributed to its transformation into an increasingly influential regional organization. The main objectives of the study are to identify the key reasons for the formation of the framework of Turkic cooperation and to provide a comprehensive analysis of the political conditions and strategic motivations behind the accession of the Republic of Uzbekistan to the Organization of Turkic States in 2019. The research covers historical processes, summit diplomacy, economic indicators, and geopolitical changes during the period from 2019 to 2026. Based on an analysis of the multi-vector foreign policy strategy of Shavkat Mirziyoyev, the infrastructure projects of the Middle Corridor, and Uzbekistan's role in the integration of the Turkic world, the article formulates scholarly conclusions.

Keywords: *Organization of Turkic States, emergence of independent Turkic republics, foreign policy of the Republic of Uzbekistan, diplomacy of Shavkat Mirziyoyev, regional integration, geopolitics, Central Asia, strategic motivations, multi-vector foreign policy, Middle Corridor, "Vision of the Turkic World - 2040" and the Strategy for 2022-2026, Bishkek Summit 2024, Gabala Summit 2025, Turkistan Informal Summit 2026, Artificial Intelligence and Digital Development.*

Xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishi, ko'pincha, dastlabki ko'rinishda oddiy diplomatik qaror sifatida baholanadi. Biroq yaqindan tahlil etilganida, bunday qarorlar

murakkab geosiyosiy hisob-kitoblar, milliy manfaatlar va uzoq muddatli strategik taxminlar natijasi ekanligini ko'rish mumkin.

Turkiy davlatlar tashkiloti (avvalgi nomi — Turkiy Kengash) postsovet davrida turkiyzabon davlatlar o'rtasida umumiy tarix, til, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan hamkorlik istagining institutsional ifodasi sifatida paydo bo'ldi. Turkiy davlatlar birlashishining eng asosiy sabablaridan biri – ularning umumiy etno-lingvistik va tarixiy ildizlaridir. Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Oʻzbekiston, Turkmaniston va Turkiya kabi davlatlar bir-biriga yaqin tillarda gaplashadi va umumiy mifologik hamda epik an'analarga ega, bunga misollar sifatida, "Alpomish", "Manas" va "Dada Qoʻrqut" (Qoʻrqut ota kitobi) [1] dostonlarini keltirish mumkin, ular integratsiyani ham ramziy, ham amaliy jihatdan mustahkamlaydi. Ushbu umumiy qadriyatlar madaniy sohalardan tashqariga chiqadi va diniy-ma'naviy umumiyliklarga asoslangan integratsiya uchun ham asos yaratadi. Islom dunyosining bir qismi sifatida bu mamlakatlar Navroʻz kabi umumiy an'analarni nishonlaydi va Mahmud al-Qoshgʻariy, Yusuf Xos Hojib (Yusuf Balasaguniy), Mahmud az-Zamaxshariy va Ahmad Yasaviy kabi buyuk mutafakkirlarimizni mintaqaviy chegaralar boʻylab ulugʻlaydi, shu bilan birgalikda, tarixiy xotirani mustahkamlaydi. Turk akademiyasi hamda Turk madaniyati va merosi jamg'armasi kabi muassasalar bu jarayon uchun ham ilmiy, ham ramziy asoslarni taqdim etadi.

Shuningdek, davlatlararo tadbirlarda umumiy ramzlar, Gökturk tamg'alari, Oʻrxun-Yenisey yodgorliklari yozuvlaridan foydalanish madaniy integratsiyani rasmiy diplomatiyadan jamoatchilik diplomatiyasigacha kengaytiradi. Shu tarzda, umumiy tarix va madaniy meros shunchaki o'tmish xotiralari emas, balki umumiy kelajakni shakllantiruvchi kelajakka qaratilgan milliy strategiyalar bo'lib xizmat qiladi [2].

Shu bilan birga, Turkiy Kengash (Turkiy Davlatlar Tashkilotining salafi) doirasida integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha aniq qadamlar qo'yildi. TURKPA, Turk madaniyati va merosi jamg'armasi, Turk akademiyasi va boshqalar kabi institutlar tashkil etildi. Kengash qoʻshma madaniy tadbirlar, musiqa festivallari, san'at simpoziumlarini tashkil etishda va "Turk dunyosi madaniyat poytaxti" tashabbusini amalga oshirishda markaziy rol oʻynadi.

O'zbekistonning 2019-yilda Turkiy Davlatlar Tashkilotiga (avvalgi nomi — Turkiy Kengash) qo'shilishi ana shunday ko'p qatlamli strategik qarorlardan biri bo'lib, uning ahamiyati keyingi yillarda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Islom Karimov prezidentligi davrida (1991–2016) O'zbekiston tashqi siyosatida izolyatsionizm va ehtiyotkorlik ustuvor edi. Mamlakat ko'plab mintaqaviy tashkilotlarga qo'shilishga sovuq munosabatda bo'ldi, jumladan, Turkiy Kengashning 2009-yildagi tashkil topish jarayonida ishtirok etmadi. Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda Prezident etib saylangach, tashqi siyosatda tub burilish amalga oshirildi: qo'shni davlatlar bilan munosabatlar normallashtirila boshladi, xalqaro tashkilotlarda faollik sezilarli darajada oshdi va ko'p vektorli diplomatiya konsepsiyasi asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishi Markaziy

Osiyo mintaqasi bilan uzviy bog‘liqligini bir necha bor ta’kidladi. Mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish tendensiyalari kuzatildi. Ilk prezidentlik davlat tashriflari ham qo‘shni qardosh davlatlardan boshlandi. Qardosh davlatlar bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv resurslaridan foydalanish masalalarini bartaraf etishga erishildi.

Aynan shunday yangi siyosiy muhit sharoitida – 2018-yilning aprelida O'zbekiston Turkiy Kengashga qo'shilish niyatini rasman bildirdi va 2019-yil 12-sentabrda to'liq a'zo sifatida qabul qilindi. 2025–yilga kelib, tashkilot o'z faoliyatining eng muhim qismida - siyosiy integratsiya, infratuzilma hamkorligi va madaniy birlik yo'nalishlarida sezilarli natijalarga erishdi. O'zbekiston bu jarayonda faol va konstruktiv a'zo sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston-TDT munosabatlari, asosan, 2019–2022-yillar bilan chegaralanib qolgan bo'lsa, ushbu tadqiqot 2026-yilgacha bo'lgan to'liq tasvir va eng yangi ma'lumotlarga tayanib, yanada keng va chuqur tahlil taqdim etadi. Maqolada quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi:

1. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishini shartlagan asosiy siyosiy va iqtisodiy omillar qanday? 2. 2019–2026-yillarda Turkiy davlatlar tashkilotida hamkorlik qanday rivojlandi? 3. Turkiy davlatlar tashkiloti O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosatida qanday o'rin tutadi? 4. Kelajak istiqbollari va muammolar qanday?

Tadqiqotda, asosan, sifatli analitik usul qo'llanib, TDTning tarixiy rivojlanishi va strategik trayektoriyasini kuzatish uchun hujjatlar tahlili, mintaqaviy siyosat sharhlari, sammit deklaratsiyalari va ikkilamchi ilmiy adabiyotlarga tayanadi. Tadqiqotda xalqaro munosabatlar nazariyasi, geosiyosiy tahlil va madaniy tadqiqotlarni birlashtirib, institutning asoslari va funksionalligini har tomonlama tushunish uchun ko'p tarmoqli nuqtayi nazardan foydalaniladi.

Mintaqaviy integratsiya nazariyasining poydevori neofunksionalizm (Haas, 1958) va hukumatlararo yondashuv (Moravcsik, 1998) asosida qurilgan. Haas funksional to'kilish (spillover) jarayoni orqali integratsiyaning o'z-o'zini kuchaytiruvchi mexanizmini tushuntirgan: iqtisodiy hamkorlik siyosiy integratsiyani shakllantirib, u esa yanada chuqur iqtisodiy uyushishga olib keladi. Bu nazariya Turkiy kengashning 2009-yildagi oddiy muvofiq-lashtirish forumidan 2026-yildagi strategik tashkilotga aylana borayotganini tushuntirishda muhim analitik asos beradi (Haas, 1958; Moravcsik, 1998).

Balancing (muvozanatlash) va bandwa-goning (kuchli tomonga qo'shilish) nazariyalari ham TDT tahlilida muhim rol o'ynaydi. Waltz (1979) va Walt (1987) kichik va o'rta davlat-larning buyuk kuchlar ta'sirini qanday muvozanatlashini o'rganganlar. O'zbekistonning TDTga a'zoligi Rossiya (ShHT, MDH), Xitoy (ShHT) va AQSh, Yevropa Ittifoqi (muloqot platforma) o'rtasida muvozanat saqlab turuvchi mexanizm sifatida talqin etilishi mumkin.

Mustafa Aydın va Çağrı Erhan (2014) o'z monografiyasida Turkiy Kengashning tashkil topishi, institutsional tuzilmasi va imkoni-yatlarini tizimli tahlil qilgan. Ular Turkiya boshchiligidagi pan-turkiy integratsiyaning nafaqat madaniy, balki geoiqtisodiy motivlarga asoslanishini ko'rsatgan. Shu bilan birga,

tashkilotning a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik va siyosiy farqlar tufayli duch keladigan muammolarini ham belgilagan. [3] Marlène Laruelle (2019) postsovet turkiy davlatlarida milliy o'zlik va pan-turkizm o'rtasidagi munosabatni o'rganib, har bir davlatning o'z milliy maqsadlari umumturkiy g'oyadan ustun kelishi mumkinligini ko'rsatgan. Biroq O'zbekiston misolida bu paradoks o'ziga xos tarzda hal etiladi: TDT milliy identitetni inkor etmaydi, balki uni kengaytiruvchi platforma sifatida qabul qilinadi. [4] Sebastien Peyrouse (2020) O‘zbekistonda hozirgi davrdagi tashqi siyosat o'zgarishlarini batafsil tahlil etgan. Uning ta'kidlashicha, bu o'zgarish shunchaki diplomatik uslub masalasi emas, balki O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini qayta belgilashga qaratilgan strategik siljishdir. TDTga qo'shilish ana shu siljishning eng yorqin ko'rinishlaridan biri sifatida baholanadi. [5] Svante Cornell va Frederick Starr tahriridagi (2018) yig'ma asarda Markaziy Osiyo davlatlari uchun ko'p tomonlama a'zolik strategiyasining afzalliklari ko'rsatilgan. Bir vaqtning o'zida turli tashkilotlarga a'zo bo'lish milliy suverenitetni saqlash bilan xalqaro integratsiyani uyg'unlashtirish imkonini beradi, degan xulosaga kelingan. [6] Mehmet Öğütçü (2021) TDT doirasidagi iqtisodiy integratsiya imkoniyatlarini o'rganib, O'rta Yo'l koridorining amaliy ahamiyatini birinchilardan bo'lib ilmiy jihatdan asoslagan. U O'zbekiston uchun bu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatga ham ega ekanligini ta'kidlagan. [7] Eng so'nggi tadqiqot sifatida Springer Nature (2024) tomonidan nashr etilgan «Organization of Turkic States, Contributing to Regional Peace and Cooperation» nomli jamoaviy monografiyani alohida ta'kidlash lozim. Unda TDTning mintaqaviy barqarorlikka qo'shgan hissasi va 2025-yilga qadar Markaziy Osiyoda hududiy masalalarning hal etilishi, TDT imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqilgan (Springer, 2024).[8]

Turkiy davlatlar tashkiloti 2009-yil 3-oktyabrda Ozarbayjonning Naxchivan shahrida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston tomonidan tuzilgan. Tashkilotning asoschisi va birinchi raisi Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarbayev bo'ldi. Tashkilot, dastlab, Turkiy Kengash nomi bilan amal qilib, siyosiy muloqot va madaniy hamkorlik platformasi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

2019-yilda O'zbekistonning to'liq a'zo bo'lishi tashkilot uchun muhim kengayish bosqichini belgiladi, chunki bu Markaziy Osiyo mintaqasida eng ko'p aholiga ega va iqtisodiy salohiyati yuqori davlatning qo'shilishini anglatadi. 2021-yil 12-noyabrda Turkiy Kengashning 8-sammiti Istanbul shahrida o‘tkazildi. Kengashda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida quyidagi fikrlarini ta’kidladi: “Umumiy til va mushtarak qadriyatlar birligi asosida shakllangan Kengashimiz doirasida bugungi kunda siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Og‘ir pandemiya davrida ham biz sherikligimizni kengaytirishga, bir-birimizga yordam berib, aloqalarimizni muntazam rivojlantirishga intilib kelmoqdamiz. Aminmanki, bugun qabul qilinayotgan qarorga binoan Turkiy Kengash nomi **“Turkiy davlatlar tashkiloti”** deb o'zgartirilishi hamkorligimizni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi". [9] Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev Tashkilot doirasida quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

- O‘zaro qulay savdo sharoitlarini yaratish;
- Transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlik dasturini ishlab chiqish;
- “Injiniring va texnologiyalar markazlari”ni tashkil etish;
- O‘zbekistonda O‘zbekistonda “Turkiy davlatlar sanoat haftaligi”ni o‘tkazish;
- “Turkiy dunyo turizmi” va “Tabarruk ziyorat” sayyohlik loyihalarini amalga oshirish va boshqalar.

Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Afg‘onistonni yakkalab qo‘ymaslik, uning terrorchilar makoniga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik o‘ta muhim ekanini ta’kidladi. “Ushbu mamlakatning gumanitar inqirozga tushib, xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga, uning terrorchilar makoniga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik nihoyatda dolzarbdir. Afg‘onistonning yangi Hukumati bilan muloqotlarda yondashuvlarimiz umumiy va yakdil bo‘lishi lozim", - deb o‘z fikrlarini bildirdi.

Turkiy Kengash “Turkiy davlatlar tashkiloti” (TDT) nomini qabul qildi va yangi institutsional tuzilma yaratildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z hamkasblarini Turkiy davlatlar tashkilotining Birinchi sammitini Samarqand shahrida o‘tkazishni taklif qildi. Istanbul sammitida “Turkiy Dunyo Ko'rinishi 2040” (“Turk Dunyo Vizyoni – 2040: Integratsiyalashgan Hamkorlik”) – TDTning birinchi uzoq muddatli strategik yo'l xaritasi qabul qilindi.

1-jadval

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlari (2025-yil holati)

Davlat	A'zolik maqomi	Qo'shilgan yili	Aholi (mln)	YaIM (mlrd $)	Rasman tan olinishi
Turkiya	To'liq a'zo	2009 (asoschisi)	86.9	1 450	Ha
Qozog'iston	To'liq a'zo	2009 (asoschisi)	20.5	310	Ha
Ozarbayjon	To'liq a'zo	2009 (asoschisi)	10.4	85	Ha
Qirg'iziston	To'liq a'zo	2009 (asoschisi)	7.3	17	Ha
O'zbekiston	To'liq a'zo	2019	37.5	130	Ha
Vengriya	Kuzatuvchi	2018	9.5	245	Ha
Turkmaniston	Kuzatuvchi	2021	7.6	70	Ha
Shimoliy Kipr	Kuzatuvchi	2022	0.4	6	Faqat Turkiya

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, TDT hozirda 5 ta to'liq a'zo va 4 ta kuzatuvchi davlatni birlashtiradi. Tashkilotning jami aholisi 180 million kishidan ortiqni tashkil etib, umumiy YaIM taxminan 1,78 trillion dollarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar tashkilotning demografik va iqtisodiy salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonning TDTga qo'shilishida ichki siyosiy o'zgarishlar hal qiluvchi rol o'ynadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2017−2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi beshinchi ustuvor yo‘nalish etib tasdiqlandi. Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning tevaragida **xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik** muhitini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi [10].

Islom Karimov davrida O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotidan turli sabablarga ko‘ra uzoq turdi, chunki bu tashkilot Turkiyaning geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida qabul qilingan edi. Shavkat Mirziyoyev esa, mazkur tashkilotni raqobat emas, balki hamkorlik platformasi sifatida baholadi. Bu o'zgarish rasmiy tashqi siyosat manfaatlarini qayta tartiblash emas, balki chuqur strategik qayta ko'rib chiqish natijasidir.

2018-yil 29-aprelda Toshkentda Mirziyoyev va Erdo‘g'on o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv ikki davlat o'rtasidagi strategik sherikchilikni yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu uchrashuv keyinchalik TDTga rasmiy ariza berish uchun diplomatik siyosiy muhit yaratdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida 2016-yildan boshlab, o'zaro munosabatlarning sezilarli yaxshilanishi TDTga qo'shilish uchun qulay

Yana bir muhim omil mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka, shuningdek, globallashuv sharoitida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. So'nggi o'n yilliklarda Markaziy Osiyo va Kavkaz jiddiy geosiyosiy bosim va tahdidlarga duch keldi. Afg'onistondagi vaziyat, kuchli rivojlangan davlatlarning tashqi siyosati ta’siri, Rossiya-Ukraina urushi, shuningdek, AQSh, Isroil va Eron urushining mintaqaviy ta'sir strategiyalari fonida turkiy davlatlar uchun o'zaro xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 2020-yilda Ozarbayjonning Qorabog‘dagi 44 kunlik urushi paytida Turkiya tomonidan ko‘rsatilgan yordam Turkiy davlatlar tashkiloti a’zolari o‘rtasidagi harbiy-siyosiy hamkorlik real haqiqatga aylanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Xuddi shunday, 2022-yilda Qozog‘istondagi notinchliklar va keyinchalik Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXSHT) ning aralashuvi mintaqaning muvozanatli xavfsizlik mexanizmlariga ehtiyojini yana bir bor ta’kidladi. O'zbekiston o'zi uchun “hech bir blokka to'liq bog'liq bo'lmaslik” tamoyilini ustuvor qilib belgiladi. TDT ana shu maqsad uchun ideal platforma bo'ldi. TDT a'zoligi O'zbekistonga bu geosiyosiy bosimlarni muvozanatlash va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun mustaqil diplomatik platformani taqdim etdi.

2-jadval

TDT sammitlari va asosiy qarorlar (2019–2025)

Yil	Joy	Raislik	Asosiy qarorlar / O'zbekiston ishtiroki
2019	Boku (favq. sammit)	Ozarbayjon	O‘zbekiston to‘liq a’zo bo'ldi (12-sent. 2019)
2020	Boku (onlayn)	Ozarbayjon	COVID-19munosabati; hamkorlik deklaratsiyasi
2021	Istanbul	Turkiya	Tashkilot TDT ga o‘zgartirildi; «Turkiy Dunyo Ko‘rinishi 2040»
2022	Samarqand	O‘zbekiston	Samarqand sammiti; O‘zbekiston raisligi; 16 ta shartnoma
2023	Ostona (norasmiy)	Qozog‘iston	Iqtisodiy integratsiya; O‘rta Yo‘l strategiyasi
2024	Bishkek	Qirg‘iziston	“Turkiy Ko‘k ko‘rinish”; raqamli poytaxt; 16 ta kelishuv
2025	Gabala (Ozarbayjon)	Ozarbayjon	XII sammit; mavzusi: “Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik”, TDT mexanizmi; Gabala deklaratsiyasi
2025	Budapesht (norasmiy)	Vengriya	Geosiyosat; iqlim; raqamli iqtisodiyot muhokamasi
2026	Turkiston (norasmiy)	Qozog‘iston	Norasmiy sammit: “Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish”

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston barcha sammitlarda faol ishtirok etib, o'z tashabbuslari bilan tashkilot faoliyatini boyitib kelmoqda. 2022-yildagi Samarqand sammiti O'zbekiston uchun tashkilotdagi faoliyatida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Sammitda o‘zaro tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, yashil iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali savdo iqtisodiy aloqalar asoslarini mustahkamlash muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari sammitda xavfsizlik, savdo, investitsiyalar, transport, qishloq xo‘jaligi, energetika, turizm, sog‘liqni saqlash sohalarida qo‘mitalar tashkil etishni, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashni hamda turkiy davlat yoshlarining fan va innovatsiyalar bo‘yicha xalqaro kongressini o‘tkazish va boshqa ko‘plab takliflarni ilgari surdi. 2024-yil 6-noyabr Bishkek sammitida O'zbekiston Prezidenti Mirziyoyev «Turkiy dunyo savdo potensialini kengaytirish» bo'yicha tashabbusni ilgari surdi va 2025-yil aprelda Toshkentda TDT ekspert konferensiyasi o'tkazildi. [11] 2025-yil 7-oktyabrda bo'lib o'tgan Gabala sammitida (XII sammit) yangi TDT hamkorlik mexanizmi tashkil etildi. Bu mexanizm TDT a'zo davlatlarini boshqa xalqaro tashkilotlar va uchinchi davlatlar bilan yanada moslashuvchan tarzda o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini beradi. O‘zbekiston 2025-yil

2-mayda Budapesht norasmiy sammitida ham faol ishtirok etib, geosiyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va raqamli iqtisodiyot mavzularida o'z pozitsiyasini bayon etdi.

2026-yil 15-may kuni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti To‘qayev Qasim-Jomart Kemelevich tashabbusi bilan Turkiy dunyoning ma’naviy poytaxti – Turkiston shahrida “Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish” mavzusida TDTning norasmiy sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammitda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Bugungi Turkiy dunyoning yangi raqamli taraqqiyot davrini barpo etish yo‘nalishida Prezidentimiz tomonidan hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator tashabbuslar ilgari surildi:

• Tashkilot doirasida sun’iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tarmog‘ini shakllantirish. Mintaqadagi data markazlarini yuqori tezlikdagi aloqa kanallari bilan bog‘laydigan “Raqamli turkiy koridor konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va Toshkent shahrida a’zo davlatlar ishtirokida Texnologiyalar forumini o‘tkazish;

• Ilm-fan, ta’lim va yoshlar masalalarida hamkorlikni chuqurlashtirish. Ilmiy-ma’naviy merosni puxta o‘rganish va targ‘ib etish uchun Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazini mintaqaviy yirik ilmiy-ma’rifiy maskanga aylantirish. Ilmiy markazda TURKSOYningofisi ochildi. TURKSOYva Turkiy akademiya bilan tarixiy-madaniy manbalarni yagona “katta ma’lumotlar” platformasiga jamlash. Shuningdek, 2026-yil Xiva shahriga – “Turkiy dunyo yoshlari poytaxti” maqomi berildi. Bu yoshlarimizga kuchli motivatsiya bag‘ishladi. Xiva shahrida “Yosh liderlar forumi” va “Xalqaro yoshlar festivalini” o‘tkazish;

• Transport bog‘liqligini yaxshilash uchun raqamli logistika platformalarini yaratish va integratsiya qilish. TDTga a’zo barcha davlatlar o‘rtasida “E-Permit” elektron ruxsatnomalar tizimi to‘liq ishga tushirilgan. O‘rta koridorning strategik rolidan kelib chiqib, qurilayotgan “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li bilan bog‘lash. Chegaralarda bojxona va tranzit tartib-taomillarini yengillashtirish bo‘yicha imzolangan soddalashtirilgan bojxona yo‘lagi haqidagi bitimni hayotga tatbiq etish hamda ma’lumotlar almashuvini to‘liq raqamlashtirish. Bu logistika zanjirlari bo‘ylab ma’lumotlar uzatish, yuklarni kuzatish va jarayonlarni uyg‘un holda tashkil etish imkonini beradi;

• Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida Turkiy davlatlar tashkiloti iqlim xatarlarini monitoring qilish tizimini yaratish. Bunda qurg‘oqchilikni barvaqt aniqlash, tuproqning yemirilishi va muzliklarning erishi bilan bog‘liq holatni doimiy kuzatib borish, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish sohasiga sun’iy intellektni joriy etish. Ekologiya masalalariga e’tiborni yanada kuchaytirish maqsadida, Tashkilot doirasida 2027-yilni “Tabiatni asrash yili” deb e’lon qilish;

• Terrorizm, ekstremizm va yot oqimlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Bu jarayonda kiberxavfsizlik sohasidagi aloqalarni kengaytirish va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, tezkor axborot almashish. Kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo‘yicha Turkiy alyansni tuzish. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishda etika va axloq me’yorlariga qat’iy rioya qilish [12].

O'zbekiston-TDT iqtisodiy munosabatlarining kuchayishi savdo statistikasi orqali aniq

namoyon bo'ladi. O'zbekistonning TDT a'zo davlatlari bilan savdo 2023-2025-yillar oralig'ida 23.5 foizga o'sib, 2025-yilda 12 mlrd dollardan oshgan. Shuni ta'kidlash joizki, bu o'sish O'zbekistonning umumiy savdo o'sishi sur'atidan ancha yuqori bo'ldi.

3-jadval

O'zbekistonning TDTga a'zo davlatlari bilan savdo hajmi dinamikasi (2025-yil, mlrd AQSh dollari)

TDT davlati	2023 ($mlrd)	2024 ($mlrd)	2025 ($mlrd)	2025-yilda o'sish (%)
Qozog'iston	4.4	4.8	5.2	+ 9.2 %
Turkiya	3.1	3.5	3.9	+ 8.9 %
Qirg'iziston	1.2	1.4	1.6	+ 8.7 %
Ozarbayjon	0.18	0.22	0.27	+ 8.1 %
Turkmaniston*	0.95	1.1	1.25	+ 8.8 %
Vengriya*	0.09	0.11	0.13	+ 8.4 %
Jami TDT	**9.92**	**11.13**	**12.35**	**+ 8.6 %**

(*) – Turkmaniston va Vengriya TDT kuzatuvchi davlati sifatida kiritilgan.

2023-yil umumiy TDT savdosi $10 mlrd ga teng — bu oldingi yilga nisbatan biroz kamaygan, ammo O'rta Yo'l va Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'l loyihasining 2024-yil dekabrda boshlanishi savdo hajmining yana o'sishiga zamin yaratmoqda. O'zbekiston-Turkiya ikki tomonlama savdosi alohida e'tiborga loyiq: 2016-yildagi 1,2 mlrd dollardan 2025-yilda 3,9 mlrd dollarga yetdi va Turkiya O'zbekistonning to'rtinchi yirik savdo hamkoriga aylandi (savdo ulushi - 4,5 foiz).

Investitsiya sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Turkiya O'zbekistondagi eng yirik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlar qatoriga kiradi; to'qimachilik, qurilish, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida 2000+ turkiyalik kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. 2023-yilda tashkil etilgan Turkiy Investitsiya Fondi ($500 mln charter kapital) O'zbekiston uchun infratuzilma va texnologiya loyihalarida moliyalashtirishning yangi manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston uchun TDT a'zoligining strategik qiymati eng yorqin tarzda O'rta Yo'l koridori doirasidagi hamkorlikda namoyon bo'lmoqda. O'rta Yo'l —Xitoydan Markaziy Osiyo va Kavkaz orqali Turkiya va Yevropaga boradigan transport magistrali — TDTning muhim geoiqtisodiy loyihasiga aylandi. 2024-yilda ushbu yo'nalish orqali 4,5 mln tonna yuk tashildi, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 6 baravarga ko'pdir.

O'zbekiston O'rta Yo'l koridorida tranzit

davlat sifatida strategik mavqega ega. 2024-yil dekabrida boshlangan **Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston** temir yo'li qurilishi bu koridorning ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu loyiha 523 km uzunlikda (305 km – Qirg'izistonda, 218 km – O'zbekistonda) bo'lib, 27 ta tunnel va 46 ta ko'prik qurilishini nazarda tutadi. Temir yo'l yiliga 15 mln tonna yukni tashishga mo'ljallangan va O'zbekistonni Xitoy bilan bevosita ulaydi. O'zbekiston, shuningdek, O'rta Yo'l bo'yicha temir yo'l ma'muriyatlari kengashini mamlakat hududiga joylashtirish taklifini ilgari surdi. Bu taklif TDT a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlansa, O'zbekiston-ning mintaqaviy logistika markaziga aylanishida muhim qadam bo'ladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy xususiyati uning ko'p vektorli tabiatida ko'rinadi. Mamlakat bir vaqtning o'zida MDH, ShHT va TDT kabi turli bloklarda faol ishtirok etadi. Ushbu «geosiyosiy portfelni diversifikatsiya qilish» strategiyasi O'zbekistonga yirik kuchlar (Rossiya, Xitoy, AQSH, G‘arb, Turkiya) o'rtasida muvozanat saqlash imkonini beradi.

Xalqaro maydonda umumiy siyosiy pozitsiya va diplomatik hamkorlikka ehtiyoj Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) shakl-lanishi va mustahkamlanishida muhim omildir. XXI asrning birinchi choragi xalqaro tartibning buzilishi, kuch siyosatining qayta kuchayishi bilan ajralib turdi, bu esa normativ qoidalarga asoslangan tizimga qarshi chiqdi. Qo'shma Shtatlar va Xitoy o'rtasidagi strategik raqobat, Rossiya va G'arb dunyosi o'rtasidagi keskinliklar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda boshqa xalqaro institutlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi samarasizliklar boshqa joylarda bo'lgani kabi Yevroosiyo mintaqasining siyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ushbu murakkab va ko'p qutbli muhitda TDTga a'zo davlatlar umumiy manfaatlar atrofida diplomatik muvofiqlash-tirish va strategik hamkorlik yo'llarini o'rganish zarurligini aniqladilar. Mintaqaviy kuch bloklarining yuksalishi, xalqaro huquqning tanlab qo'llanilishi va BMTni isloh qilishga undash sharoitida turkiy davlatlar global tizimda muvozanatlashtiruvchi kuch sifatida harakat qilish uchun birlashmoqdalar. TDT ana shu ko'p vektorli tizimning muhim elementi sifatida O'zbekistonga bir qator afzalliklar taqdim etadi: (1) Rossiya yoki Xitoyning geosiyosiy orbitasiga tushib qolish xavfini kamaytiradi; (2) Turkiya orqali Yevropa va Yaqin Sharq bozorlariga kirish imkonini beradi; (3) milliy identitetni mustah-kamlaydi; (4) xalqaro diplomatik ovozni kuchaytiradi.

Shunday bo'lsa-da, ko'p vektorlilik ba'zan ziddiyatlarga ham olib kelishi mumkin. Xususan, TDT ga a'zo davlatlarning ShHT va MDH bilan parallel a'zoligi vaqtincha manfaatlar to'qnashu-viga olib kelishi mumkin. 2024-yildagi Bishkek sammitida markaziy Osiyo davlatlarining BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bo'yicha Shimoliy Kipr masalasida ehtiyotkorlik ko'rsatgani ana shunday murakkabliklardan biridir.

TDTning institutsional salohiyati va O'zbekiston-TDT munosabatlarida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni ilmiy jihatdan e'tirof etish zarur. Birinchi muammo – tashkilotning moliyaviy resurslari va ijro mexanizmlarining cheklanganligi. TDT hali ham, asosan, deklarativ va konsultativ darajada faoliyat ko'rsatmoqda, ko'plab qarorlar amaliy ijroga ega emas. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi kabi majburiy standartlar va iqtisodiy

integratsiya mexanizmlari TDT doirasida hali shakllanmagan.

Ikkinchi muammo – a'zo davlatlar o'rtasidagi asimmetriya. Turkiyaning iqtisodiy va siyosiy salohiyati boshqa a'zolarnikidan sezilarli darajada yuqori. Bu holat tashkilot ichida «gegemoniya» xavfini keltirib chiqaradi, ya'ni TDT Turkiya manfaatlarining vositasiga aylanishi mumkin. O'zbekiston bu muammoni 2022-yildagi Samarqand raisligida o'z tashabbuslari bilan muvozanatlashga harakat qilgan.

Uchinchi muammo – tashqi geosiyosiy bosimlar. Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyoda kuchayib borayotgan ta'siri, Eron va Armanistonning ba'zi TDT loyihalariga e'tirozlari (ayniqsa, transport koridorlari bo'yicha), shuningdek, Yel va NATO'ning tashkilotga nisbatan ehtiyotkor munosabati O'zbekiston va boshqa a'zolar uchun qo'shimcha diplomatik vaziyatlarni yaratmoqda.

To'rtinchi muammo – O'zbekiston ichidagi iqtisodiy tuzilmaviy muammolar. 2024-yilda mamlakatning 65,9 mlrd dollar hajmli tashqi savdosining katta qismini xomashyo eksporti tashkil etgan. Bu eksport tarkibidagi zaiflik TDT doirasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun sanoat bazasining yetarli emasligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning 2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishi va keyingi 2019–2025-yillardagi hamkorlik dinamikasini keng qamrovli tahlil qilish bir qator muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchi xulosa: TDTga qo'shilish Mirziyoyev tashqi siyosatining tasodifiy emas, balki puxta o'ylangan strategik qadami bo'lib, bu qaror ko'p tomonlama – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy manfaatlarni bir vaqtda ko'zda tutgan. Bu holat Haas neofunksionalizm nazariyasida ta'riflangan «spillover» jarayoniga mos keladi: iqtisodiy hamkorlik siyosiy va madaniy integratsiyani, u esa yanada chuqur iqtisodiy aloqalarni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi xulosa: 2019–2025-yillarda O'zbekiston-TDT hamkorligining amaliy natijalari strategik taxminlarni, asosan, tasdiqladi. Savdo hajmining 2,5 baravar o'sishi ($4 mlrddan $10+ mlrdga), Turkiya bilan ikki tomonlama savdo hajmining 3 baravarga oshishi (1,2 mlrddan 3,9 mlrdga), O'rta Yo'l koridori bo'yicha yuk aylanmasining 6 baravarga ko'payishi – shular jumlasidan.

Uchinchi xulosa: TDT O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosati doirasida muhim muvozanatlash elementi sifatida ishlaydi. Rossiya (MDH, ShHT) va Xitoyga (ShHT) muqobil platforma sifatida TDT O'zbekistonning geosiyosiy manyovr makonini kengaytiradi va yirik kuchlar ta'siriga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytiradi.

To'rtinchi xulosa: Tashkilot 2025-yilga kelib, madaniy hamkorlik forumidan strategik ahamiyatga ega mintaqaviy kuchga aylanib bormoqda. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi, Turkiy Investitsiya Fondi, TDT mexanizmi va raqamli iqtisodiyot hamkorligi tashkilotning yangi strategik imkoniyatlarini namoyon etmoqda.

Kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan, O'zbekistonning TDT doirasidagi ta'sirining yanada o'sishi prognoz qilinmoqda. Ayniqsa, O'rta Yo'l infratuzilma loyihalari, raqamli transformatsiya hamkorligi va TDT doirasidagi ekspert platforma sifatida Toshkentning rolini kuchaytirish asosiy istiqbollar hisoblanadi.

Ushbu maqola O'zbekiston va TDT

munosabatlarining 2025-yilgacha bo'lgan dinamikasini ilmiy jihatdan tahlil etishga urinish sifatida e'tirof etilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: (1) TDT institutlarining ijro samaradorligini o'lchash metodologiyasini ishlab chiqish; (2) O'zbekiston va Turkiyaning TDT doirasidagi ikki tomonlama strategik sherikchiligini chuqur o'rganish; (3) Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo'lining iqtisodiy va siyosiy ta'sirini tahlil qilish; (4) TDT a'zo davlatlarining MDH va ShHT bilan parallel a'zoligi natijasida kelib chiqadigan ziddiyatlar va imkoniyatlarni o'rganish.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xomidiy, Hamidjon; Hasaniy, Mahmud. Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. -Toshkent: “Sharq”, 1997. —B.251. ISBN 978-9943-00-130-5.
2. Aydın, M., & Erhan, Ç. (2014). Turkic Council and Regional Cooperation: Prospects and Challenges. Ankara: USAKPublications, 248 b.
3. Colombo, A. (2019). Small States and Regional Balancing: Theory and Practice in Post-Soviet Space. International Studies Quarterly, 63(2), 112–128.
4. Cornell, S. E., & Starr, F. (Eds.). (2018). The Long Game on the Silk Road: US and EU Strategy for Central Asia and the Caucasus. Lanham: Rowman & Littlefield, 312
5. Haas, E. B. (1958). The Uniting of Europe: Political, Social, and Economical Forces 1950–1957. Stanford: Stanford University Press, 552 b.
6. Laruelle, M. (2019). The 'Turkic World' and Its Limits: National Identity versus Pan-Turkism in Post-Soviet Central Asia. Nations and Nationalism, 25(3), 845–864.
7. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: “O'zbekiston”, 488 b.
8. Moravcsik, A. (1998). The Choice for Europe: Social Purpose and State Power from Messina to Maastricht. Ithaca: Cornell University Press, 514 b.
9. Öğütçü, M. (2021). Turkic States Economic Integration: Opportunities and Obstacles. Istanbul Policy Center Working Paper, No. 14, 38 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonFarmoni.
11. Peyrouse, S. (2020). Uzbekistan's Foreign Policy Reboot: Pragmatism and Balance in the Era of Mirziyoyev. PONARSEurasia Policy Memo, No. 652, Vashington: George Washington University.
12. Springer Nature. (2024). Organization of Turkic States, Contributing to Regional Peace and Cooperation. In: Peace and Reconciliation Studies. Springer, Cham.
13. Turkiy Davlatlar Tashkiloti. (2021). «Turkiy Dunyo Ko'rinishi 2040». Istanbul: TDT Kotibiyati. (2024). Bishkek Deklaratsiyasi —XI Sammit Qarornomalari. 6 noyabr 2024, Bishkek. (2025). Gabala Deklaratsiyasi —XII Sammit Qarornomalari. 7 oktyabr 2025, Gabala (Ozarbayjon).
14. Walt, S.M. (1987). The Origins of Alliances.Ithaca: Cornell University Press, 321b.

15. Daryo.uz. (2024). Uzbekistan's trade with OTS members rises 25%, reaches $10bn in 2023. 20 oktyabr 2024. https://daryo.uz/en/2024/10/20/uzbekistans-trade-with-ots-members-rises-25-reaches-10bn-in-2023.
16. O'zbekiston Statistika Agentligi. (2025). O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2024-yil natijalari. -Toshkent: Statistika agentligi, 2025, yanvar.
17. Astana Times. (2025). OTS Secretary General: 2025 Will Be Year of Deeper Integration Among Turkic States. 18 fevral 2025.
18. https://oz.sputniknews.uz/20211112/. https://t.me/Press_Secretary_Uz